

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

DIKTANTLAR TO'PLAMI
(V – VII sinflar uchun)

TOSHKENT
«ABU MATBUOT-KONSALT»
2008

81.2Y36-8
D50

H 34856
Og1

Mazkur diktantlar to'plami (V – VII-sinflar uchun) 2007-yil 15-oktabrdagi Respublika ta'lif markazi huzuridagi Ona tili bo'yicha ilmiy-metodik kengash yig'ilishining qarori bilan nashrga tavsija etilgan.

Tuzuvchi: *Mamadiyeva Maxfurat*, RTM metodisti

Muharrir: *M.Abduraimova*, RTM bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi


Taqrizchilar: *Dildora Nuriddinova*, RTM bosh metodisti
Gulsara Ziyodullayeva, ilmiy – metodik kengash a'zosi,

Diktantlar to'plami. (V – VII sinflar uchun)/Tuzuvchi M. Mamadiyeva; O'zR xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lif markazi. – T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. – 48 b.

I. Mamadiyeva M. (tuzuvchi)

BBK 81.2(Y36)-8

Mazkur «Diktantlar to'plami» umumta'lif mifikalarining V–VII sinflarida ona tilidan nazorat ishlari o'tkazishga mo'ljallangan. Berilgan matnlar ta'kidiy diktant, ijodiy diktant hamda nazorat diktanti uchun tanlandi. Bunda V–VII sinflarda diktantning yuqorida keltirilgan turlarini o'tkazish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, yozma nutq malakalarini mustahkamlashga xizmat qilishi hisobga olindi. Matnlar tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ma'naviy va ruhiy rivojlanish jihatlariga e'tibor berildi. Matnlar V–VII sinf ona tili o'quv dasturi talablariga asosan tanlangan bo'lib, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksisiga oid mavzularning o'zlashtirilishini mustahkamlash va tekshirishga mo'ljallangan. Mazkur risola dars jarayonida yoki oraliq nazorat ishlarini o'tkazishda ona tili o'qituvchilari uchun metodik yordam beradi.



ISBN 978-9943-336-18-6

©«ABU MATBUOT-KONSALT» nashriyoti, 2008-y.

SO'ZBOSHI

Diktant – o‘quvchilarning savodxonligini oshirish va tekshirish, bilim, malaka, ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida kundalik hamda oraliq nazorat shaklida o‘tkaziladi.

Diktantlar ta’limiy va nazorat diktantlarga ajratiladi. Ta’limiy diktantlar o‘quv jarayonida, ma’lum mavzularni takrorlash, mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. Ta’limiy diktantlar izohli yozuv, ta’kidiy, izohli diktant, saylanma, ijodiy, erkin, lug‘at diktantlari kabi turlarga bo‘linadi.

Izohli yozuv, ta’kidiy va izohli diktant, lug‘at, nazorat diktantlarda matn o‘zgartirilmay yoziladi.

Saylanma, erkin va ijodiy diktant vaqtida esa matn ma’lum o‘zgarish bilan yoziladi.

Ta’kidiy diktant o‘quvchining orfografik qoidalarni ongli o‘zlashtirishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ta’kidiy diktantda matnni bayon qilishdan oldin imlo qoidalarini eslash, izohlash talab qilinadi.

Ijodiy diktant o‘quvchilarga bilimlarni ongli o‘zlashtirishlarida yordam berish, yozma nutqni to‘g‘ri shakllantirish, nutqiy savodxonlikka o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq madaniyatini o‘sirish, mustaqil va erkin fikrlash malakalarini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. Diktantning bu turi o‘quvchilardan faollik va mustaqillikni talab qiladi.

Nazorat diktanti yoki tekshiruv diktanti o‘rganilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida kundalik yoki oraliq nazorat shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Mazkur diktant turini o'tkazishda tanlangan matn ijodiy bo'lishi, o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olingan bo'lishi, sara gaplardan yoki tayyor adabiy-badiiy parcha holida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Matn o'rganiłgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda o'tilgan mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishi lozim.

Mazkur «Diktantlar to'plami» umumta'lim mакtabalarining V–VII-sinflarida ona tilidan nazorat ishlari o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, bunda berilgan matnlar ta'kidiy diktant, ijodiy diktant hamda nazorat diktanti uchun tanlandi. Chunki V–VII-sinflarda diktantning yuqorida keltirilgan turlarini o'tkazish o'quvchilarining so'z boyligini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, yozma nutq malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda matnlar tanlashda o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ma'naviy va ruhiy rivojlanish jihatlariga e'tibor berildi. Matnlar 5, 7-sinf ona tili o'quv dasturi talablariga asosan tanlangan bo'lib fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksisiga oid mavzularning o'zlashtirilishini mustahkamlash va tekshirishga mo'ljallangan. Mazkur risola dars jarayonida yoki oraliq nazorat ishlarini o'tkazishda ona tili o'qituvchilari uchun metodik yordam beradi degan umiddamiz.

FONETIKA

TA'KIDIY DIKTANT

Unli tovushlarning tagiga chizing.

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho‘z, tig‘-tug‘, uq-o‘q, sur-so‘r, to‘r-tur, un-in, ming-mung, til-tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam

Aytilishi o‘xshash bo‘lgan undosh tovushlarni ajrating.

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo‘p-xo‘b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog‘-yoq, tog‘-toq, tig‘-tiq, bog‘- boq, qul-kul, tug‘ma-tugma, to‘q-tiq, qo‘l-ko‘l, qir-kir

So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating.

Ohangi, rangi, zangi, tajang, arang, manglay, minglab, singil, tongdan, tingla, qalbim, mehring, quvonchi, fikrimiz, o‘ngga, nayrang, jarang, bo‘lim, so‘lim, mas‘uliyat, an‘ana, sun‘iy, qat‘iy, tana, ta‘na, surat, sur‘at, davo, da‘vo, sava, sa‘va, durust, uyatchan, gapirmoq, dangasa, azamat, farzand

IJODIY DIKTANT

LEKSIKOLOGIYA

Shakldosh, ma'nodosh, paronim, zid ma'noli so'zlar

Shakldosh so'zlarni topib, ko'chiring va ma'nosini aniqlang.

1. Bolalar urushib qolgach, tez orada yarashib oladilar. Bu ko'ylak qizaloqqa juda yarashibdi.
 2. Daladagi bug'doyni qisqa muddatda o'rib olish kerak. Onam sochlarmi mayda qilib o'rib qo'ydilar.
 3. Bolakay qo'lidagi bir juft yong'oqni chaqa boshladи.
- Oyi, qarang, ukamning qo'lini ari chaqib olibdi.

Berilgan so'zlardan paronim so'zlarni ajratib yozing.

Kuzgi-ko'zgu, soya-salqin, aft-bashara, azim-azm, paydoyda, asr-asir, teri-tire, mard-mart, ilik-ilk, o't-olov, xol-hol, surma-xurmo, darz-dars, ho'l-quruq, xam-ham, sher-she'r.

Gap mazmuniga mos ma'nodosh so'zlarni qo'ying.

1. Bu yigit zap chiqdi-da (bahodir, azamat)
2. O'qituvchi mavzuni (gapirdi, tushuntirdi)
3. Onam (ning) bu gapdan sira (xabari yo'q, xabardon emas)
4. Ertalabki.... juda yoqimli (shamol, shabada)
5. Insonning sog'ligi uning... idir. (davlat, boylik)

Zid ma'noli so'zlarni ajratib yozing.

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
2. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.
3. Yolg'on aytib foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan.

4. Chap tomonda – tog' etaklari, o'ng tomonda-yashil dalalar. 5. Ziyoda tanish dala yo'lidan borar ekan, qarshisidan kelayotgan notanish kishini ko'rib to'xtadi.

Qo'shma va juft so'zlar

So'zlarni tuzilishiga ko'ra turlarga ajrating.

Eson-omon, orzu-umid, otqulqoq, rahm-shafqat, savol-javob, soya-salqin, taklifnoma, ko'ksulton, oshpichoq, tokqaychi, qo'lqop, asta-sekin, havo rang, sofdil, o'qib bermoq, to'rtburchak, ko'rpa-yostiq, belbog', yaxshi-yomon, kecha-kunduz, uzoq-yaqin, oq-qora.

SINTAKSIS

So'z birikmasi

Mazkur so'zlar yordamida so'z birikmalarini hosil qiling.

Jasorati, qiziqtirish, yaxshilarga, qiziqtirmoq, yaxshilik qilmoq, qahramonlar, o'rganmoq, etmoq, boyliklardan, donishmandning, asramoq, foydalanish, ustozdan, tabiatni, javobi, etmoq, sodiqlik, maqsadga, vatanga

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Darak, so'roq, his-hayajon gaplarni ajrating.

- Nodira, sen qaysi to'garakka a'zo bo'lgansan?
- Men «Yosh ijodkor»to'garagiga a'zoman. Sen-chi?
- Men esa «Mohir pazanda»to'garagiga a'zo bo'lganman. Yaqinda opamning tug'ilgan kunida to'garakda o'rgangan «Bahor»deb atalgan shirinlikni tayyorlab berdim. Opamning xursandligi va minnatdorchiligini ko'rsang edi?! Insonga shunday quvonch

bag‘ishlash naqadar yaxshi! Istanasang, senga ham o‘rgataman.
Darsdan so‘ng biznikiga kelasanmi?

– Bo‘pti, boraman.

**Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlab,
ketma-ketlikda yozing. (darak, so‘roq, istak, buyruq)**

1. Qadim zamonda bir yurtga yov bostirib kirmoqchi bo‘lib,
bahona izlay boshlabdi.
2. Sen O‘zbekistonning qaysi mintaqada joylashganini
bilasanmi?
3. Vatan, Ona so‘zi naqadar laziz!
4. Atrofimizni gulzorlarga aylantiraylik.
5. Uying eshigi samimiy do‘srlaring uchun doimo ochiq
bo‘lsin.

GAP BO‘LAKLARI

Ega va kesim

**Matndagi kim? nima qildi? so‘roqlariga javob bo‘luvchi
bo‘laklarni (so‘zlar) ajratib yozing.**

Haqiqiy do‘sst sening tashvishlaringga sherik bo‘ladi. Boshingga
kulfa tushganda yordam beradi. Sen o‘zingning sirlaringni, hech
kim bilmaydigan ishlaringni o‘zgalarga ishonmasliging mumkin,
biroq do‘stingga ishonasan.

Do‘slik birdaniga paydo bo‘lmaydi. Insonlar uzoq vaqt
birlarini tushuna olganlaridan so‘nggina bu rishta paydo bo‘ladi.
Do‘srlarning dunyoqarashlarida, qiziqishlarida umumiy yaqinlik
bo‘ladi. Haqiqiy do‘srlar hamisha bir-birlariga yordam beradilar.
Tashvishlariga sherik bo‘ladilar. (V. Vavilova)

Aniqlovchi, to'ldiruvchi

Berilgan so‘zlardan matndagi nuqtalar o‘rniga mos (so‘z) gap bo‘laklarini topib yozing.

Bu, insonni, narsaga, kuchli, insonlarga, amallarga, bunday, mustaqil, ojizlarni, adolatli, o‘zini

..... fikrga ega inson..... inson hisoblanadi..... insonni hamma hurmat qiladi va. . inson hayotda ko‘p erisha oladi..... insonni haqorat qilish yoki mazax qilishdan qo‘rqadilar. Irodasi insonlarga yashash qiyin. Chunki o‘zgalardan jismoniy va aqliy jihatdan inson o‘z zimmasidagi juda mas’uliyatli bo‘ladi..... . inson boshqalarga jismoniy va aqliy jihatdan zarar keltirmaydi..... . fikrli inson o‘zi uchun, yonidagi yaqin kishilar uchun ham javobgar hisoblaydi. U himoya qiladi. Har doim yechilishi qiyin bo‘lgan muammoning javobini topishga intiladi.

Aniqlovchi turlari

Berilgan matndagi kimning? nimaning? hamda qanday?, qaysi? so‘roqlariga javob bo‘lgan bo‘laklarni ajratib yozing.

Vatanimizning davlat ramzlaridan biri – O‘zbekiston madhiyasidir. Davlatimiz madhiyasida vatanimizning betakror go‘zalligi, xalqimizning oliyjanob fazilatlari, mustaqilligimizning abadiyligi, yorug‘ kelajagimiz madh etiladi.

O‘zbekiston bayrog‘idagi moviy rang tiriklik, hayot ifodasi bo‘lgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Oq rang tinchlik ramzi, xalqimizning oliyjanob va ezgu intilishlari mujassamidir. Yashil rang esa tabiatning yangilanish ramzi. Bayroqdagi qizil chiziqlar xalqimiz vujudidagi kuch-g‘ayrat va qudrat belgisi.

Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'langan to'ldiruvchilar qo'llangan gaplarni aniqlab, ketma-ketlikda yozing.

Rasmiy timsollar Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq. Mustaqil bo'lмаган xalqning rasmiy timsollari ham bo'lmaydi.

Vatan timsollari xalqni birlashtirib, uni yagona maqsad sari safarbar etib yashashga, har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlari uchun kurashishga da'vat etadi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir.

Hol va uning turlari

So'roqlar o'rniga gapning mazmuniga mos keladigan holni topib qo'ying.

Qaldirg'ochlar (qachon?) issiq o'lkalarga uchib ketadi, (qachon?) yana biz tomonga uchib keladi. Sevara (qachon?) (qayerda?) dam oldi. Oromgohlar (qayerda?) joylashgan. (Qayerda?) turli to'garaklar tashkil etilgan. U yosh tabiatshunoslar (qayerga?) qatnashdi. Yosh tabiatshunoslar daraxtlarni, gullarni (qanday?) parvarish qildilar. Sevara (qayerdan?) (qanday?) kayfiyatda o'z (qayerga?) qaytdi.

Uyushiq bo'lakli gaplar

Berilgan so'zlardan uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

1. Qaldirg'ochlar, bulbullar, uchib, issiq, o'lkalarga.
2. Hayajonlanadi, taraddudlanadi, gala-gala bo'ladi, ular, oldidan, uchish.
3. Boradi, bu, Qrim, Kavkazga, qushlar, Hindistonga, uchib.
4. Qishlaydi, shu yerda, musichalar, chumchuqlar.

Undalmali gaplar

Tinish belgilarini qo‘ying.

1. -Rahmat do‘stim dunyoda yangi yopilgan non isidan ko‘ra yoqimliroq hid yo‘q.

– Sultonim rahmatni menga emas, dehqon boboga ayting. Xafa bo‘lma qizim senga yordam beraman. -Narsalaringni yig‘ishtir oppog‘im. Ko‘rishguncha xayr qadrdon do‘stim.

Kirish so‘zlar

Berilgan kirish so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Albatta, ikkinchidan, haqiqatan, ehtimol, shubhasiz, demak

1..., ertangi kun orzularini ro‘yobga chiqarish uchun yaxshi o‘qish kerak. 2..., orzuga yetishish oson emas. 3..., o‘z orzularimni ota-onamga aytganman.

4. Har bir bolaning o‘z orzusi bo‘ladi, 5 ..., vatanni faqat boyliklari uchun sevmaydilar. 6..., bu mavzu sizga tanish tuyulayotgandir.

NAZORAT DIKTANTI

SO‘Z TURKUMLARI

Ot so‘z turkumi

Belbos‘

O‘sha paytlar yosh bola edim. Ko‘zimda o‘t chaqnab turardi. O‘yindan boshqa tashvishim yo‘q edi. Ba’zi narsalarga aqlim ham yetardi. Bir kuni onam chaqirib qoldi. Qo‘llarida nimadir bor edi. Qand bo‘lsa kerak. Yo‘q, boshqa narsa ekan. Borganimdan

so‘ng uni belimga bog‘lab qo‘ydi. Onamdan buni nima ekanligini so‘radim. – Bu belbog‘ seniki. Otangda ham bor, bobongda ham bor, uning bobosida ham bo‘lgan. Baxting shunda, belbog‘ingni yecha ko‘rma! – dedi onam.

Shu-shu bu belbog‘ menga aziz bo‘lib qoldi. Uni hech kimga ishonmadim. Chang-dog‘ tegmasin deb asradim. Iplari so‘kilmasin, deb juda hushyor bo‘ldim. Yoshim ulg‘aygan sari uni ham ko‘proq yaxshi ko‘raverdim. Birovga berishni xayolimga ham keltirmadim. Endi u orim, nomusim, g‘ururimga aylangandi. Unda otamning qo‘llari, onamning nurli siymosi, yaqinlarimning tafti bor. Ajdodlarimning bo‘ylari bor unda. Shukur, belbog‘im-orim, faxrim, bor-budim o‘zimda. Belbog‘imdagи «Vatan» degan yozuvni ko‘zlarimga surtaman. (130 ta so‘z, Behzod Fazliddin)

SIFAT

Oltin yaproqlar

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko‘chaga chiqdim. Kech kuz bo‘lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go‘yo ko‘chaga chiqishingizni kimdir bilganu, yo‘lingizga gilam to‘sab qo‘ygan.

Har yili kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi. Shuning uchun ham ko‘chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq-uzoq aylanaman.

Quyoshning so‘nggi shu'lalari so‘ndi. Tepaga qaradim. Ko‘k betini parcha-parcha qora bulutlar qoplab olgan edi. Ko‘p o‘tmay, qayinzorni tasir-tusur tovushlar qoplab, yomg‘ir yog‘a boshladи.

Yerda tangadek ochiq joy qolmadi. Hammasini xazon qopladi. Yomg‘ir zarbidan barglar duv-duv to‘kilardi.

Bir mahal qayinzor yorishdi. Yomg'ir siyraklashdi. Yuzimdag'i yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim. Qaradimu, ko'zlarim qamashib ketdi. Ro'paramdagi qayinning eng yuqori shoxida bir narsa xuddi oltindek tovlanib turardi. Qo'limni soyabon qilib yaxshilab qaradim. Bu... oddiy yaproq, sap-sariq qayin yaprog'i edi. Yaprox quyosh nurida oltindek tovlanib, yengil tebranganicha ko'kka dadil bo'y cho'zib turardi. (O'. Umarbekov, 120 so'z)

SON

Ikki do'st

Ikki oshna yoshlikdan birga o'sdilar. Davr kelib ikkalasi ham o'z baxtini izlab yo'lga chiqsalar, ikki yo'l uchraydi. Biri bir tomonga, ikkinchisi boshqa tomonga yo'l oladilar. Ulardan biri shaharma-shahar yurib ilmu hunar orttiradi. Ikkinchisi borgan shahrida podshoh saylash uchun uchirilgan semurg' qush tasodifan uning boshiga qo'nib, shu shaharga shoh bo'lib qoldi. Yillar o'tib, do'sti shu shaharga keladi. Har yerga qo'yilgan shahar shohining rasmiga ko'zi tushdi. Do'stining iqbolidan shodlanib, uni ko'rishga oshiqdi. Podshoh saroyiga borib uning huzuriga kirdi. Podshoh uni tanib, tanimaslikka oldi. U kuyunib, yonib «Axir men sening do'sting falonchiman-ku!» deb o'zini tanitdi. Podshoh esa: «Xo'sh, mendan nima istaysan», dedi. Do'sti esa «Sendan hech qanday iltimosim yo'q. Shahriringga kelsam, xalq orasida podshohning ko'zları ojiz bo'lib qolibdi, degan xunuk xabarni eshittdim. Shuning uchun do'starning holidan xabar olay deb huzuringga kelgan edim», debdi-yu, yo'liga qaytibdi. (122 so'z) («Saodatnoma»dan)

OLMOSH SO'Z TURKUMI

Afsonaviy hikoya

Bolaligimda buvim aytib bergen bir afsona hech yodimdan ko'tarilmaydi.

Bir sahoba har kuni maktabga borib, o'g'liga bitta olma berib kelar ekan. Bir kuni maktabga borishning hech iloji bo'lmasabdi. Nima qilishini bilmay yo'lda turgan ekan, yupun kiyingan bir odam oldidan o'tib qolibdi.

Sahoba so'rabdi:- Mabodo maktabga ketmayapsizmi?

- Topdingiz, taqsir, maktabga ketayapman, – debdi yo'lovchi.
- Unday bo'lsa, bir iltimosim bor... Maktabda o'g'lim o'qiydi. Mana shu olmani berib qo'ysangiz...
- Uni men qanday taniyman? – so'rabdi yo'lovchi.
- Kirishingiz bilan ko'zingiz tushadi. Eng chiroyli bola mening o'g'lim.

– Yo'lovchi indamay sahoba uzatgan katta, qip-qizil olmani olibdi.

– Sahoba kechqurun uyiga qaytsa, o'g'li yig'lab o'tirgan emish. Sababini so'rabdi.

- Nega bugun olma olib bormadingiz maktabga?
- Sahoba uni aldashganini aytib, o'g'lini yupatibdi. Ertasiga o'sha odamni koyibdi.
- Siz, meni, o'g'limni xafa qildingiz. Nega olmani unga bermadingiz?
- Kechirasiz, – debdi yo'lovchi. –Men sizni ham, o'g'lingizni ham xafa qilishni o'ylaganim yo'q. Siz, menga eng chiroyli bolaga bering, dedingiz. Mening ko'zimga o'z o'g'limdan chiroyliroq bola ko'ringani yo'q. Shuning uchun olmani unga berdim.

Sahoba hech narsa deyolmabdi.

Men hech qaysi xalq, hech qaysi millatni kamsitmoqchi emasman. Lekin mening uchun mening xalqimdan chiroyli, sabr-toqatli, bag'ri keng, qalbi ochiq xalq yo'q. (O'. Umarbekov, 150 so'z)

FE'L

Bahor

Lola sayli juda gashtli bo'ldi. Quyosh tepamizga kelguncha, ikki quchoq—ikki quchoqdan lola terib qo'ydir. Sobirjonning sevinchi ichiga sig'masdi. Kasaldan yaqinda turgan bo'lsa ham, xuddi yosh boladek u yoqdan—bu yoqqa sakrab chopar, ko'm-ko'k maysalar ustiga dumalardi.

Biz borgan joy haqiqatan ham go'zal edi. Bir tomoni tog', bir tomoni ko'm-ko'k dala. Olisda kumushdek tovlanib daryo oqmoqda. Lolazor esa, xuddi mohir to'quvchi qo'lida to'qilgan chorsи gilamga o'xshardi.

Yo'Iga tushdik. Mashina isib ketdi. Dala joyda shunday bo'ladi. Sobirjonning peshonasini hatto ter qoplay boshladi. Oynani tushirdim. Gup etib muzdek havo yuzga urildi. Tez ketayotgan ekanman.

Kun og'a boshlagan edi. Qishloqqa kirdik. Ikki tomonimizdan bargak yozgan tollar lipillab o'ta boshladi. Peshayvonli sariq bino oldidan o'tayotganimizda bir bog'lam siren ko'targan kichkina qizcha bizga qo'l silkib qo'ydi. Tabiat bilan baravar ko'z ochasan. Go'zallikdan boshqa narsani ko'rmaysan. Mashina soy bo'yiga yaqinlashdi. Choyxona shu yerda edi. (O'. Umarbekov, 130 so'z)

Burgut

Qushilar shohi – burgutlar to‘g‘risida xalqimizda ko‘p rivoyatlar bor. O‘tgan yil kuzning o‘rtalari edi. Qashqadaryoning eng bahavo Miroqi tog‘i etaklarida buлоq bo‘yida o‘lib yotgan burgutni ko‘rdik. Tog‘lar hukmdorining bunday fojiali halok bo‘lishi bizni juda-juda ajablantirdi. Yaqinroq borib qarasak, burgutning bo‘yniga ilon chirmashib yotibdi. Burgutning zo‘riqib chaqchaygan ko‘zлari nursiz. Toshga kelib urilganidan bo‘lsa kerak, bir qanoti egilgan. Ilon ham o‘lib yotar edi. Ilonning boshi majaqlanib ketibdi.

Hayron qoldik. Nahotki burgut ilondan ojizlik qilib halok bo‘lgan bo‘lsa? Bu savolga hamrohimiz javob berdi:

– Burgutlar ilonga o‘ch bo‘lishadi. Burgut ilonni changaliga olib ko‘kka parvoz qilgan paytda, ilon astasekin uning bo‘yniga chirmashib, uni bo‘g‘a boshlar ekan. Holsizlangan qush bekorga o‘lib ketishni istamay, o‘zini zarb bilan qoyaga yoki toshga urib, o‘zini ham, raqibini ham halok qilarkan. Hamrohimiz burgutlarning shu tarzda halok bo‘lganini avval ham uchratganligini hikoya qilib berdi. (130 so‘z, gazetadan)

VI-sinf

IJODIY DIKTANT SO'Z TURKUMLARI

FE'L

Harakat tarzi fe'llarini aniqlang. Matn mazmuniga mos, harakat tarzi fe'llar ishtirok etgan gaplar tuzing.


Ikki o'quvchi daryo qirg'og'idan keta boshladilar. Bir changalzorga duch keldilar. Ular changalzorga yaqinlashganda, qushlar gurillab uchib ketishdi. Bolalar qushlar ortidan beixtiyor qarab qolishdi.

FE'L NISBATLARI

Berilgan gaplarning kesimini to'g'ri joylashtirib chiqing.

1. Qudrat qanotlari lang ochilgan kattakon temir darvoza oldida...
2. Qizil, sariq, pushti rang gullar....
3. Chakkasiga rayhon qistirgan baland bo'yli chol biz bilan
4. Onda-sonda o'yinqaroq bolalar, tirikchilik bilan ovora yur-gan kattalar ...
5. Diktantni oqqa ko'chirib yozishga ...

So'zlar: ochilgan edi, to'xtadi, ko'rindi, ruxsat berilmaydi, so'rashdi



Mazkur fe'l shakllari yordamida so'z birikmalari hosil qiling va jumlalar tuzing.

Qaynaydigan, bajarilmas, haydalgan, ketmas, ko'rgach, tikilgancha, uxlaguncha, qo'rqib...

Berilgan so'zlarni (ot, son, sifat, ravish) so'z turkumlari bo'yicha turlarga ajrating davom ettiring.

Uchuvchi, uchovi, o'lchov, kech, shabada, sho'x, mardona, jasur, ozodlik, xushta'm, o'tloq, sehrli, ko'z, picha, tez, chamanzor, o'ntacha, bittalab...

OT

Berilgan so'zlarni shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rinojy otlari bo'yicha alohida qatorga yozib chiqing va qatorni davom ettiring.

Muyassar, vatandosh, qisqich, gulzor, ko'zoynak, hovli, zargar, qishloq, aravakash, yaproq, o'tloq, ariq, daraxt, tabiatshunos, chizg'ich, osmon, O'zbekiston, daraxtzor, bayroq, sayyoh, Andijon.

Otlarning munosabat shakllarini qo'yib gaplarni yozing.

Shoir she'ri...kitob...qadr-qimmati...yuksak baholaydi va oftob... o'xshatadi. Oftob... bizga beradigan noz-ne'matlari... kitob...oladigan bahramiz...taqqoslaydi. Oftob o'z nurlari bilan moddiy hayotimiz... yoritsa, kitob ma'naviy hayotimiz... yoritadi. Kitob bo'lmasa, kitob...yog'ilib turgan ziyo bo'lmasa, inson taraqqiyot...hozirgi yorug' cho'qqisi... yetmas edi.

SIFAT

Ma'nodosh sifatlarni yozing, har biri ishtirokida gap tuzing.

Chiroyli, ko'rkam; kuchsiz, zaif; ulug', buyuk; eski, ko'hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong'i, zim-ziyo; katta, ulkan; aziz, qadrli; sho'x, quvnoq; yalqov, dangasa.

Makon-zamon sifatlari qatorini davom ettiring va shu so'zlar ishtirokida matn tuzing.

Bulturgi, yozgi, qadimgi....

SON

Sonlarni ma'no turlariga ajrating.

Ikkovlari Toshkentga ko'chib ketadigan bo'lishdi. Bir onadan yuz bola, yuzovi ham bo'z bola. O'tloq yonidagi ikki tup azim tol bizga qadrdon edi. -Uchalangizni baliq oviga olib boraman, – dedi bobo. Ulardan bittasi kutilmagan javobni berdi. Qizlar xonalarga to'rttadan joylashishdi. Toshkent ming-minglab kishilarni o'z bag'riga olgan edi. Qishlog'imizda o'nlab fermer xo'jaliklari mavjud.

RAVISH

Quyidagi so'zlar ishtirokida «Mening ish kunim» mavzusida matn tuzing hamda ravishlarning ma'no jihatdan turini aniqlang.

Kechqurun, birpas, bugun, charchaganday, so'ng, tezda, ertalab, bekor

Sifat va ravishlarni ajratib ikki qatorga yozing hamda qatorni davom ettiring.

Yayov, shirin, so'nggi, do'stlarcha, xushbichim, noiloj, aqlli, devoriy, oq, uzoq, behad, tez, majburan

NAZORAT DIKTANTI

FE'L NISBATLARI

Yulduz va Arslon

Bolalar kiyikka «Yulduz» deb, kuchukka esa «Arslon» deb nom qo'yishdi.

Yulduz hovlida yurishga, bolalarning qo'lidan ovqat yeishga kundan-kunga ko'nika boshladidi. Hatto oradan bir necha kun o'tgach, Hasanning orqasidan ergashadigan ham bo'lib qoldi. Hasan juda quvondi. U, Husanning «aka, mening Arslonim aqlli, orqamdan ergashib yuradi, sening Yulduzing jinni, gapni ham uqmaydi» degan ta'nalaridan qutuldi.

Ilgari kiyik bilan kuchuk bir-birlaridan qo'rkar, bir-birlariga yaqin kelolmay chakchayib turishar edi. Sekin-sekin ular bir-birlariga o'rgana boshlashdi. Avval qo'rqligida, keyinchalik birga o'ynab, bir idishda ovqat yeydigan ham bo'lishdi. Endi ular birga uslashadi. Shunisi qiziqki, kuchuk bilan kiyikning ba'zi odatlari bir-birlarinikiga o'xshab ketadi. Shuning uchun kuchukni oilada Husandan bo'lak hech kim yoqtirmay qoldi.

Oradan yana bir necha oy o'tib ketdi. Malik tog'a mehnat ta'tiliga chiqdi. Uydagilar maslahatlashib, yaylovga borib, qimiz ichib, tog'larga chiqib ov qilib, dam olishmoqchi bo'lishdi. Mashinaga kiyikni ham, itni ham olishdi.

Yaylov hayoti boshlandi. Yaylovning g'uborsiz, yengil havosi va chiroyli manzarasi hammaga yoqib qoldi.

Tun. Yarim kechaga yaqin tog‘ ortidan ko‘tarilgan oy ham-mayoqni yoritib yubordi. Atrof jim-jit. Bugun bo‘rilarning goh-gohda uzoqlardan eshitiladigan ovozi ham yo‘q. O‘tovda odamlar dong qotib uslashmoqda, tashqarida esa Yulduz bilan Arslon yonma-yon yotishibdi.

Bir mahal Yulduz to‘satdan o‘rnidan turdi-da, tog‘ tomonga tikilib qoldi. Buni payqagan Arslon boshini ko‘tarib, har yoqqa alanglay boshladi. Yulduz bezovtalandi. Oradan ko‘p o‘tmay bir bo‘ri yugurib keldi-da, kiyikka tashlanmoqchi bo‘ldi. G‘azablangan Arslon bo‘rining yo‘liga chiqib, jon-jahdi bilan hura boshladi. Bo‘ri tishlarini irjayatrganicha turib qoldi. Lekin it ham, bo‘ri ham bir-biriga yaqinlasholmas, olishishdan hayiqar edi. To‘polondan cho‘chib, uyg‘onib ketgan Malik tog‘a bilan haydovchi o‘qlog‘liq miltiqlarini ko‘tarib, vahima bilan yugurib chiqishdi. Malik tog‘a apil-tapil bo‘rini nishonga olib otdi. Bo‘ri yaralanib quladi. Arslon o‘zini uning ustiga tashladi. Jon talvasasida it bilan olishayotgan bo‘ri sulayib qoldi. Arslon bo‘ridan chetlab, Yulduzni qidira ketdi. (Yoqubjon Shukurov, 180 so‘z)

FE'L

Mehr

Har kuni saharda, hali quyosh chiqmasdan sayr qilish odatim bor. Ko‘chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin boqqa o‘taman.

Erta tongda bog‘ning husni o‘zgacha bo‘ladi. Havo muzdek, buning ustiga tiniq. Qushlar shoxdan-shoxga o‘tib sayraydi, goh olisda, bog‘ning orqa tomonida, goh shunday tepangizda kakku ku-kulaydi.

Shunday tonglarning birida bog‘da aylanib yurgan edim, katta sadaning tagida o‘zimga tanish chol – bog‘ qorovulini ko‘rib qoldim. U supurgiga iyagini tirab xomush turardi.

Yaqinroq bordim. Allanarsa jonholatda chirqillardi. Cholning qulog‘i shunda. Ovoz goh tinadi, goh kishini seskantirib chirqillaydi. Ancha qulop solib turdim. Chol ham joyidan qimirlamasdi. Ko‘zlar o‘ychan. Bir mahal supurgisini tashladi-yu, sadaning orqasidagi ekinning ichini cho‘kkalab olib titaboshladi.

Qancha vaqt titkiladi, bilmadim, o‘rnidan turganda, qo‘lida qushning jish bolasi bor edi. Jonivor kichkina tumshuqchasini katta-katta ochib chirqillardi.

Chol allanarsalar deb qushchani erkalagan bo‘ldi, tili bilan avaylab og‘zini ochib ho‘lladi. Keyin sadaga qaradi. Men ham qaradim. Sadaning odam bo‘yi keladigan butog‘ida qandaydir qushning ini bor edi.

Chol shunga tikilib qoldi. Qushcha hamon chirqillardi. Chol bir oz o‘ylanib turgach, qo‘lini cho‘zib uni iniga qo‘ydi. Qushchaning ovozi tindi, chol jilmaydi-da, supurgini yelkasiga tashlab, bog‘ning ichkarisiga kirib ketdi.

Shu payt bog‘ yorishib ketdi, oltin shu'lalarini sochib, quyosh chiqdi. U nihoyatda katta edi. (O‘. Umarbekov 150 so‘z)

Yaxshilikning mukofoti yaxshilikdir

O‘zbek xalqida qadimdan mehr-oqibat, saxiylik, yetim-yesirlarga muruvvat, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar mavjud. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi orasida bir-birini yo‘qlash, nochor va nogiron kishilarga yordam berish odat tusiga kirgan. Mana shu xususiyatlar o‘tayotgan har bir yilni bir ezgu nom bilan atalishiga, xalqning kayfiyati va ehtiyoji orzu va intilishlarini savob ishlarga bag‘ishlanishiga sabab bo‘lmoqda. Har

bir yil kishining yurakdan ado etiladigan xayrli ishlarga chorlovchi nom bilan atalishi bilan qadrli va qimmatlidir. Yillarni yillarga, yaxshiliklarni yaxshiliklarga bog'lab kelayotgan nomlanishlarda xalqning yuragidagi mehr-muruvvat, elparvarlik, xayru saxovat aks etmoqda. 2007 yil ijtimoiy himoya yili deb nomlandi. Ijtimoiy degan so'z ko'pchilikka, jamoatchilikka mansub degan ma'noni ifodalaydi. Demak, bu yil xalqimizni atrofdagilarga nisbatan homiylik, beminnat mehr-muruvvat ko'rsatishga chorlaydi. Ijtimoiy himoya masalasi barchamizning burchimizga aylanadi. Har bir inson qalbida xayrli ishlar qilishga ahd paydo bo'ladi. Yurtimizda yaxshilikning mukofoti yaxshilikdir degan ulug' aqidaga rioya qiluvchilar soni ko'payadi. (110 so'z, gazetadan)

OT SO'Z TURKUMI

Karvonsaroy

Xuroson mamlakati poytaxtiga aylangan G'azna shahriga kirish darvozasi yonida bunyod etilgan karvonsaroyda dunyoning hamma chekkalaridan savdo-sotiq ishlari bilan kelgan turli millat, qavm, elatlarga mansub savdo ahliga yo'liqasiz. Nariyog'i Iroq, Misr, Yunoniston, Makkayu Madinadan, berirog'i Qoshg'ar, Hindiston va Chindan, Buxoro, Samarcand singari mamlakat va shaharlardan kelganlarning son-sanog'i yo'qdek. Kashmiriy zarbof shohilar, turli qimmatbaho zargarlik buyumlari, nodir xitoyi chinni asboblar, don-dun, meva-cheva deysizmi, hamma-hammasi bor bunda. Bir tomonda turli gazlama, uy-ro'zg'or buyumlari ortilgan aravalar, tuyalar, ot-ulovlar tirband. Odamlar chehrasiga boqib kelgan yurtini bilib olish qiyin emas.

Ayniqsa, Hindistondan keltirilgan mollar, turli, rangorang shohi sariylar yoki zargarlik buyumlari behisob. Sulolasining

shavkatli namoyandasasi bo‘lmish Sulton Mahmudning Hindiston yurishlarida qatnashgan sarkardalar, jangchilar o‘lja aylab orttirib kelgan buyumlar G‘azna bozorida arzon-garovga sotilib ketardi.

Savdo ahlining G‘aznaga oqib kelishiga tag‘in bir sabab, bunda kundan-kun rivoj topib, kengayib borayotgan G‘aznaviylar sultanati dovrug‘i bo‘ladi (130 so‘z M. Qoriyev)

Qush tili

Alisher esa taxta ostiga Farididdin Attorning «Mantiquttayr»ini qo‘yib zavq bilan o‘qiydi. Bu kitobni o‘qiganda u o‘zini ajoyib bir bog‘ ichida yurgandek his qiladi. Daraxt shoxlarida o‘tirgan qushlar chug‘urlashib bir-birlariga hikoya aytayotgandek tuyuladi.

Bugun ham uning ko‘z o‘ngida bahaybat simurg‘ qushining Xitoy ustida parvoz qilib yurgani gavdalandi. Simurg‘ qanotidan bir pat yerga tushib, butun mamlakatni nurga g‘arq qilib yubordi. Nurga cho‘mgan bir vodiyda kengash qurib o‘tirgan to‘ti, hud-hud, qumri, tovus, bulbul, lochin va boshqa parrandalar Simurg‘ qushini o‘zlariga boshliq qilib olishga qaror qilib, uni topib keltirish uchun parvoz qildilar. Biroq yo‘lda qushlarning ba‘zilari charchab, izlariga qaytmoqchi bo‘ladi. Ularga boshchilik qilgan hud-hud ajoyib hikoyalarni aytib, yarim yo‘ldan qaytish yaramasligini tushuntiradi: «O‘z manfaatingizni ko‘zlab orqaga chekinmang, umumiylar maqsadimiz yo‘lida jon fido qiling» deb nasihat qiladi.

Qushlar uning gapini ma‘qul ko‘rib, yana parvoz qiladilar. Simurg‘ni axtarib cho‘l va sahrolar, yashil vodiylar, baland tog‘lar oshib uchib ketaveradilar. Parrandalardan faqat o‘ttiztasi bir manzilga borib yetadi. Simurg‘ qushini bunda ham topolmaydilar. Niroyat, ular Simurg‘ o‘zlarini ekanini, tojikcha «si-murg‘» o‘ttiz

qush demak ekanini anglaydilar. Charchamay-hormay bir maqsadga intilishlari ularni simurg‘ darajasiga ko‘targan. (Mirkarim Osim 135 so‘z)

Vatan himoyasi

Vatan himoyasi hamma zamonlarda ham eng sharaflı va olıyjanob ish, ona diyorga bo‘lgan mehr-muhabbatni amalga namoyon etishning oliy namunasi bo‘lib kelgan. Yurti himoyasi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk bobolarimizning jasorati bizlar uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Vatanimizga bo‘lgan mehrimizni yanada oshiradi. Xorazmlik ulug‘ alloma Najmiddin Kubro falsafiy she’rlari, ilmiy risolalari bilangina emas, Vatan himoyasi yo‘lidagi qahramonligi bilan ham xalqimiz xotirasida yashab kelmoqda.

Chingizxon bosqinchiligidagi mo‘g‘ul qo‘sishnlari yurtimizga bostirib kelgan paytda dushmanlar ul zotning obro‘-e’tiborini hisobga olib, ozodlik bermoqchi bo‘ladilar. Ammo donishmand dushmanning bu iltifotini qabul qilmaydi. U kishi mard o‘g‘lonlar bilan birga jangga kiradi va qahramonlarcha halok bo‘ladi. Rivoyat qilishlaricha, avliyo bobomiz dushman bayrog‘ini tortib olib, shu qadar mahkam ushlagan ekanki, o‘limidan keyin shogirdlari hatto kuch bilan ham uni ustozning qo‘lidan ajratib ololmagan ekan.

Bu – Najmiddin Kubro bobomizning dushmaniga bo‘lgan cheksiz nafrati, Vatanga bo‘lgan mustahkam e’tiqodi ifodasi. Bu e’tiqodni hatto o‘lim ham yo‘q qilolmadi. («Vatan tuyg‘usi» kitobi, 130 so‘z)

SIFAT SO'Z TURKUMI

Chimyon

Anvar aka jiyani Otabekni ta'til vaqtida Chimyon sayohatiga olib chiqdi. Otabek bunday xushmanzara yerlarni birinchi marta ko'rishi edi. Atrof ketgancha olchazor, bodomzor. Torgina so'qmoqning ikki tomoniga rang-barang gullar chamani gilamdek to'shalgan. Kumush jilg'alarining shildirab oqishi, mayin shabada kishiga huzur bag'ishlaydi. Qizil malla rang qoyalar bag'ridan oqib tushayotgan firuza shalolaning sho'x shovqini eshitiladi. Otabeklar shalolaga yaqinlashganda, suvning yoqimli shabadasi yuzlarini silab o'tdi. Shalolaning billur suvlaridan hosil bo'lgan shisha rang ko'lda baliqchalar erkin suzishardi.

Anvar aka asboblarini ko'm-ko'k maysa ustiga o'rnatdi va go'zal manzarani rangdor bo'yoqlar bilan chiza boshladi. Otabek toshlar ustida qo'zichoqday u yoqdan-bu yoqqa sakrab o'ynadi, ko'lning suvida yuvindi. Shu payt ularning ko'ziga qizil, sariq, zangori, pushti, havo rangda tovlanib turgan kamalak ko'rindi.

Anvar aka Otabekka kamalak va tabiatdagi ranglar haqida hikoya qilib berdi. Otabek hikoyani juda berilib tingladi, ko'p narsalarni bilib oldi va Anvar akaga rahmat aytdi. (140 so'z, «Gulxan»dan)

Shirin va achchiq

Qadim zamonda bir odamning xizmatkori bo'lardi. Bir kuni xo'jası unga: «Bugun eng yaxshi narsadan ovqat tayyorla!»-dedi. Xizmatkor qo'yning tilidan lazzatli taom pishirib, xo'jası yoniga keltirdi. Xo'jası so'radi: «Bu taomni nimadan tayyorladding?» Xizmatkor javob berdi: «Qo'yning tilidan, zero o'zingiz eng yaxshi

narsadan ovqat tayyorlashni buyurdingiz. Tildan ham yaxshiroq nima bor dunyoda!»

Boshqa bir kuni xo'ja sinamoq niyatida xizmatkoriga dedi: «Bugun eng yomon narsadan tayyorlangan ovqatni eyishni xohlayman». Xizmatkor bu safar ham qo'yning tilidan taom tayyorladi. Xo'jası javob berdi: «Bu yemishni nimadan tayyorlading?» Xizmatkor javob berdi: «Qo'yning tilidan, zero o'zingiz eng yomon narsadan ovqat tayyorlashimni buyurib edingiz. Dunyoda tildan ham yomonroq nima bor? Til ham eng yaxshi, ham eng yomon narsa bo'la olishi mumkinmi?- taajjublanib so'radi xo'ja.

Xizmatkor javob berdi: «Ha, janob, til ham eng yomon, ham eng yaxshi narsadir. Zero yaxshi va haqiqatni aytganida undan yaxshiroq narsa yo'q, yomon va yolg'on so'zlasa, undan ham yomon narsa bormi dunyoda?!» (Rivoyatdan, 135 so'z).

SIFAT SO'Z TURKUMI

Kamtarlik

Xalqimizda «Kamtarga kamol, manmanga zavol» degan maqol bor. O'zida kamtarlikni mujassamlantira olgan kishi har bir yerda va har vaqt, har qachon kishilarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Kamtar inson hech qachon, hech yerda mag'rurlanmaydi, faqat kamtarlik xislatlaridan mahrum kishigina beandisha bo'ladi. Bunday kishi beandishalik bilan o'zgalardan o'zini yuqori tutadi, o'ziga ma'qul bo'lган xatti-harakatlarni qiladi.

Kamtarin inson o'zining biror yangi kashfiyoti yoki biror sohadagi yutuqlari bilan mag'rurlanmaydi. U biror yangilik kashf

etar ekan yoki biror foydali ish qilar ekan, u avvalo kishilarni baxtsaodati uchun, insonlarga yengillik yaratib berish uchun qiladi. Shunga ko'ra u, o'z ishi bilan shuhrat qozonishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ymaydi.

Kamtarin insonga xos eng yaxshi fazilatlardan biri, uning o'z yoru-do'sti, birodarlariga, o'z ustozi, o'zidan kichiklarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishidir. Bunday kishilar odatda kamsuxan bo'ladilar. Ular maqtanchoqliknii, mahmadonalikni yoqtirishmaydi. (130 so'z, Yoqubjon Shukurov)

SON

Tilni bilgan elni biladi

Nutq eng katta boylikdir. Inson nutqi, gapira olishi bilan ulug'dir. Barcha asrlarda xalqlarni bir-biriga bog'laydigan, yaqinlashtiradigan asosiy vosita til bo'lgan. Ayrim tillar hatto xalqlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan. Shuning uchun "Til bilgan-el biladi" deydilar.

Hikoya qilishlaricha, kunlardan bir kun ulug' vazir va shoir Alisher Navoiy Samarqand shahrida bir-biri bilan tortishib savdo qilayotgan ikki insonga duch kelib qolibdi. Ular bir-biriga baqirar, biri «se» desa, ikkinchisi «uch» derdi. Atrofdagi odamlar esa «Narxini tushirma»deb, ularni yanada urishtirar edilar. Navoiy ularning yoniga yaqin keldi va har ikkoviga o'z tilida gapirib tushuntirdi. «Ey, odamlar! Axir ikkovingiz ham bir xil narxni aptyapsiz-ku. Tojik tilidagi «se» o'zbek tilidagi «uch»degani-ku!». Barcha odamlar xaxolab kulib yuborishibdi. Shuning uchun odamlar hamisha bir-birini tushunishi, ahil va inoq yashashi uchun bir-birlarining tillarini o'rganishga harakat qilib keladilar. Boshqa tillarni bilish har bir bilimli kishining

ko'r kidir. Kimki boshqa millat va xalqlar tilini bilsa, u shu xalqning dilini ham anglaydi. Xalqlar o'rtasidagi birlik, ahillik, mehr-oqibat va hurmat til va madaniyatni bilishdan boshlanadi. (130 so'z, rivoyatdan)

RAVISH

Chinor

Tog' qishlog'iga safarlarimni eslasam, yo'ldagi ko'hna chinor va uning ostidagi istirohatgoh ko'z oldimga keladi.

Navbatdagi tog' sayohatida ko'hna chinor tagiga burildimu, hang-mang bo'lib qoldim. Chinor osti ship-shiydam: na choyxonadan nom-nishon bor, na gulzordan. Jilg'a ham qurib, hamma yoqni yana sho'ra, ajriq bosib ketibdi. Suvsizlikdan yosh daraxtlarning shox-yaproqlari kuz kirmay sarg'aya boshlabdi. Faqat ko'hna chinor hamon viqor bilan tanho kekkayib turibdi.

Bu achinarli ahvolning sababini keyin bildim. Qobil bobo olamdan o'tibdi.

Oradan ikki yil o'tdi. Bultur kuzak tag'in toqqa yo'lim tushdi. Beixtiyor chinor tomon burildim. Qarab ko'zlarimga ishonmadim. U yerda Qobil bobo vaqtidagi manzara qayta jonlanibdi, yo'q, undan ham fayzliroq... Kuz boshlanganiga qaramay daraxtlarning shox-yaproqlari yam-yashil. Oldingisidan kengroq ariqda zilol suv ayqirmaqda. Sho'ra-yu, ajriqlardan musaffo bo'lgan gulzorda esa rango-rang gul, rayhonlar gurkirabdi.

Uyoq-bu yoqqa alanglaymiz. Chodir tutilgan bog' ichidan bir yigit chiqib keladi. Qobil boboday ochiq chehra bilan kutib oladi, avval gulzorga, so'ng choyxonaga taklif etadi. Xayrlashuvda Qobil bobo udmicha gul, rayhonlardan tutadi.

Qishgacha ochilib turadigan atirgullar bilan sadarayhonlarning
tusi ham, rangi ham qo‘limizdagi gul, rayhonlarga o‘xshar edi...
(Hakim Nazir 135 so‘z)

RAVISH SO‘Z TURKUMI

Navro‘z

Tun bo‘yi iliq shabada esib chiqdi. Tongga yaqin shamol
yuksakliklarga ham ko‘tarila boshladi, demak, tog‘dagi qorlar
eriydi. El ko‘pdan beri bunday voqealarni ko‘rmagandi. Tabiat
elga cheksiz saxovatlar ko‘rsatdi, erkalatdi. Qish ozorsiz oppoq
etagini ko‘tarib bahorga o‘rnini bo‘shatdi. Tip-tiniq osmon
asta-sekin qizg‘ish alangaga bo‘yaldi. Bu – bahor quyoshining
beminnat nurlari. Yaqin orada qorlar mutlaqo erib tugaydi.
So‘ngra suvlar ko‘pirib, shovillab vodiyga oqib tushadi. Yerga
singib, uni ko‘pchitadi. Shu tariqa chigit ekish, urug‘ sepish
pallasiga navbat yetadi. Dehqon elning yagona maqsad-maslagi
shu. Tabiat yangitdan kelinlik libosiga burkanib uni hayajonga
soladi, maqsadlari tomon yetaklaydi. El ohorli kiyimini kiyib, tun
bo‘yi pishirgan lazzatli taomlarini olib, navro‘zni qarshilash uchun
qirlarga chiqadi.

Ilk quyosh nurlari olamni lolarangga bo‘yay boshlagan
lahzalardanoq odamlar daryo sohilini, daryo ustidagi ko‘prikn
liq to‘ldirdi. Rango-rang kiyangan erkak va ayollarning qo‘llarida
tugun. Hayrat bilan atrofga alanglashadi. Ana, vodiy o‘rtasidagi
maydon tomondan oppoq soqolli nuroniyl el keksalari kela
boslashdi. Yig‘ilganlar ortlariga tisarilib, qo‘llarini ko‘ksilariga
bosgancha, salomlar bilan qarshilashdi.

– Navro‘zlariningiz muborak! Qutlov, sharaflash xitoblari yeri
ko‘kni to‘ldirdi. Aks-sadosi tog‘larga yetib qaytdi. Karnay-surnay,

childirma ovozlari yangradi. Navro‘z bayrami boshlandi. (O‘ktam Hakimali 180 so‘z)

Insonning eng qudratli boyligi

Inson o‘z aql-idroki, bilimi bilan barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodir. Bilim insonlarni barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egalari hamisha elda aziz bo‘lganlar va hurmat qozonganlar. Mamlakat ishiga nafi tegadigan kishilar avvalo bilimli va donishmand kishilardir. Jahonda bilimdan ulug‘, bilimdan aziz narsa yo‘q. Insoniyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sadigan bilimli kishilar hozir olimlar deb ataladilar. Olimlar tabiat va jamiyat bilan bog‘liq hodisalarini o‘rganadigan, ulardan xulosa chiqaradigan va qonuniyatlarini aniqlab, o‘zidan keyingi avlodlarga yetkazadigan insonlardir. Ularning mehnati bilan bebaho fikrlar xazinasi bo‘lmish kitoblar dunyoga kelgan. Qadimgi vaqtda esa olimlar donishmandlar deb atilib, ular bir necha sohalar bilan shug‘ullanganlar. Shunday qomusiy sharq olimlaridan Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniylarning yaratgan asarlari jahon ilm xazinasining poydevorlari hisoblanadi. Barcha kashfiyotlar, insoniyat erishgan yutuqlar va hozirgi taraqqiyot olimlarning mehnati natijasidir. (130 so‘z, «O‘zbek tili»darsligi).

OLMOSH

IJODIY DIKTANT

Men, biz, kimdir, nimadir, har kim, har narsa, mana bu, uning, o'zimiz, ana, o'sha, mana bu, uning, o'zimiz, ana, o'sha, hamma, butun olmoshlari ishtirokida «Mening mahallam» mavzusida 12-14 gapdan iborat matn tuzing.

YORDAMCHI SO'ZLAR

Berilgan gaplar orasidan so'roq olmaydigan so'zlarni ajratib chiqing.

Iison har bir ishni sabr va matonat bilan yuritishi lozim. Ilm zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi. Yurak dala sari talpinardi. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Ayvonga o'zgacha fayz kirdi, ammo hali hovli yig'ishtirilmagan edi. Yoki kurashib g'alaba qilamiz, yoki mardlarcha halok bo'lamiz. Sizga qolsa shu yaxshiku-ya.

KO'MAKCHI

Berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarga qo'shilgan kelishik qo'shimchalari o'rniga ma'nosi mos keladigan ko'makchilarni qo'yинг.

Adabiyot xalqqa xizmat qiladi. Qalamda yozilgan xat tez o'chadi. Men bu sovg'ani onamga oldim. Viloyat markazigacha mashinada yarim soatda boraman. Sobirbekdek o'g'li borning ko'ksi tog'.

BOG'LOVCHI

Berilgan sodda gap justlarini bog'lovchi vositasida bog'lab qo'shma gaplar hosil qiling.

Vijdon – yaxshi xulqlarning manbai. Har kimning nazarida ma'qul va suyuklidir. Elimiz istiqlolga erishdi. Mustaqillik osonlik bilan qo'iga kiritilmadi.

YUKLAMA

Berilgan so'zlar orasidan yuklamalarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

Basharti, nahotki, faqat, to'g'risida, ya'ni, ammo, singari, tomon, xuddi, uchun

TAQLID VA MODAL SO'ZLAR

Mazkur so'zlar orasidan tovushga taqlid so'zlarni ajrating va «Tabiat manzarasi» mavzusida matn tuzing.

Yarq-yurq, duk-duk, qiy-chuv, gumbur-gumbur, lip-lip, shitir-shitir, taq-tuq, yalt-yult, chars-churs.

Modal so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Darhaqiqat, aftidan, demak, afsuski, ehtimol, xullas, umuman

NAZORAT DIKTANTI

OLMOSH

Qorbobo

Hovlimiz Kuytan tog‘ining archazor yonbag‘rida bo‘lib, tevaragi pastak devor bilan o‘ralgandi. Lekin ayvondan turib qarasangiz, devorlar ko‘rinmaydi: daraxtlar shunaqa qalin. Bu daraxtlar orasida bir tup archa ham bor edi.

Men shu hovlida to‘rt faslni kuzatib, to‘rt faslni qarshilardim. Lekin, bular orasida eng yaxshi ko‘rganim – qish fasli edi. Gap shundaki, men qish mahalida, qish bo‘lganda ham qirchillama kunida, birinchi yanvarga o‘tar kechasi, Qorbobo kelishidan sal oldin tug‘ilgan ekanman. Shuning uchun mendan biron kishi dunyoga kelib, ko‘zingni ochib, ilk bora ko‘rgan narsang nima, deb so‘rasa, onamdan keyin qishni, qorni, Qorboboni ko‘rganman, deyman. Xullas, bu to‘rttalasini ham yaxshi ko‘rardim.

Bu orada o‘zim ham o‘quvchi bo‘ldim va tushundim: Qorbobo degan kishi o‘rmonda bo‘lmas ekan, o‘zim-o‘zimni aldab yurgan ekanman. Lekin baribir ishonmasdim: Qorbobo bor, u o‘rmonda yashaydi, yangi yilda keladi, sovg‘alar olib keladi, tabriklaydi, deb o‘ylar edim. Shuni o‘ylasam, o‘rmon ham, yangi yil ham, qish ham, hammasi sirli bo‘lib ko‘rinardi, yosh boladay quvonar edim.

Mana, o‘smirlikdan ham o‘tib qoldim. Qishlog‘imdan, maktabimdan, hovlimiz, o‘rmonimizdan yiroqdamon. Endi ko‘p narsaga aqlim ham yetadi. Kishi o‘zini o‘zi aldashi yaxshi emasligini ham bilaman. Lekin nima qilay? Harmon o‘sha ikkilanish bor menda. Hatto, endi ko‘proq ishonib qolganman: «Qorbobo bor, u o‘rmonda,

u sovg'a olib keladi, u salom olib keladi, u bizni tabriklaydi...»
(Sh. Xolmirzayev, 135 so'z)

O'ZLIK OLMOSHI

Rivoyat

Bir kuni Damashq hokimi huzuridagi olimlar yig'iniga Forobiy kelib qoladi. O'z taxtida o'tirgan hokim Sayfutdavla Forobiyni o'tirishga taklif etadi. Forobiy: «O'zingning martabamga qarab o'tiraymi yoki sizning martabangizga qarab o'tiraymi?» – deb so'raydi. Hokim: «O'zingning martabangga qarab o'tir», – deb javob beradi. Olim to'ppa-to'g'ri hokimning taxi yoniga borib o'tiradi. Bundan g'azablangan hokim ko'pchilikka ma'lum bo'Imagan tilda soqchisiga: «Bu turk odobsizlik qildi, axloqsizligi uchun uni ketayotganida jazolanglar!» -deydi. Shunda Forobiy: «Men hech qanday gunoh qilganim yo'q-ku, nima uchun meni jazolaysiz?»-deb so'raydi. Hayratga tushgan hokimning «Bu tilni xalq orasida hech kim bilmas edi, sen qayerdan o'rgangansan?» degan savoliga Forobiy: «Men ko'p tillarni o'rganganman», deb javob beradi... «Ilkinchi muallim»ni tanib qolgan hokim uzr so'raydi. (110 so'z, Rivoyatdan)

Bir qarich yer

Qadim zamonda bir yurtga yov bostirib kirmoqchi bo'lib, bahona izlay boshlabdi. Lekin bu yurtning podshosi juda donishmand, oqil va tinchliksevar ekan. U dushmanning niyatini tushunibdi va behuda qon to'kilishiga yo'l qo'ymaslik uchun yovning lashkarboshisiga o'zining uchqur arg'umog'ini, ya'ni zotdor otini beribdi. Ammo dushman bu bilan kifoyalanmabdi. U yana urush boshlaymiz, deya dag'dag'a qilishdan to'xtamabdi.

Shunda podshoning lashkarboshilari yig‘ilib, «Shohim, o‘zingiz ayting, biz qachongacha bunday xo‘rlikka chidab, jim qarab turaveramiz, buyuring, bizlar jangga kiraylik, yurtimizni, sha’n-u g‘ururimizni himoya qilaylik», debdi. Podshoh yana bosiqlik bilan, «Yo‘q, bekorga qon to‘kilmasin», deb javob beribdi va urushning oldini olish uchun yov lashkarboshisiga o‘zining tilla qilichini in’om etibdi. Biroq makkor yov bu bilan ham kifoyalanmabdi. U endi podshoga: «Mamlakating hududidagi hech narsa unmaydigan tashlandiq yerdan bir qarichini berasan, yo‘qsa xalqning qonga belaymiz», deya do‘q-po‘pisa qilibdi. Shunda podsho qat’iyatga to‘lib, qurol-yarog‘ini shaylab, lashkariga qarata, «Qani, ketdik, endi jangga kiramiz, chunki Vatanning bir qarich yerini ham dushmanha berib bo‘lmaydi», deb kurashga otlangan ekan. (Rivoyatdan, 155 so‘z)

Olim boboning hikoyasi

Olim bobo mahalladagi mo‘ysafidlaming eng keksasi. Buning ustiga u katta bog‘bon. Bobo gul va daraxtlar tabiatini yaxshi biladi. Uning mehribon, shirin so‘zligini ayting. Kishining dilidagini topib gapiradi. U bilan suhbatlashgan kishi yonidan jilmasam deydi. Bobo go‘yo ajoyib tirik kitob. Shuning uchun ham Olim boboni hamma o‘z otasidek sevadi, hurmat qiladi. Maslahatlarini jon-dil bilan bajarishadi.

Mana bolalar zoriqib kutgan kun ham yetib keldi. Bir mahal oppoq kiyungan Olim bobo salmoq bilan qadam tashlab kirib keldi. Olim bobo bolalar bilan so‘rashgach, chinor tagidagi kursiga o‘tirdi.

– Chiroqlarim, – deb gap boshladи bobo hassasiga suyanib,
– O‘tgan zamonlarda maktabingizning o‘rni past-baland, kultepa
bo‘lib yotgan yaydoq – bo‘sh joy edi. Men yosh bolaman. Bir

kuni mahallamizdagи savdogar boyning Norqul degan xizmatkori yoshlarni to'plab, o'sha joyga ko'chat ekib, obod qilishga chaqirdi. Buni bizlar xursand bo'lib qabul qildik. Norqul ota o'zi birinchi bo'lib, o'rik, qayrag'och va chinor o'tqazdi. Bizlar ham ko'cha va maydonlarga juda ko'p ko'chatlar o'tqazdik. Marzalar yasab, gullar ekdis. «Inson qo'li gul, bolalar! - dedi Norqul ota suyunib, - mana, qaqrab yotgan yer, bo'stonga aylandi!»

Afsuski, Norqul ota kutganidek bo'lmadı. Ish tepasiga kelib qolgan boy: «Bog'dagi yumushni tashlab, bu yerda nima qilyapsan!» deb do'q urdi.

Norqul ota xafa bo'lib, indamay yo'lga tushdi.

Hamma mehnatimiz bekorga ketdi. Bir kuni kelsak, boyning ot-mollari ko'chatlarimizni yakson qilib yuboribdi. U vaqtarda boyning mushugini pisht deb bo'larmidi. Ko'chalarga o'tqazgan ko'chatlarimiz suv tanqisligidan qurib ketdi. Norqul ota chelaklab suv tashish, doimo parvarish qilish orqasida ko'chatlaridan faqat bir tupini-mana shu chinorni saqlab qola oldi. Kunlar o'tdi. Chinor o'zini rostlab, hayvonlarning surkanganiga va kemirganiga qaramay o'saverdi.

Norqul ota vafotidan keyin, odamlar chinorga «Norchinor» deb nom berishdi. Chinor undan yodgorlik bo'lib qoldi. (Yoqubjon Shukurov, 180 so'z)

Bo'ri polvonning o'ylari

Bo'ri polvon ich-ichidan zil ketdi. O'zi bilan o'zi gapirishdi. «Biz polvonlik mактабида o'qимадик. Polvonlik bizga ota meros. Pushtdan-pushtga, qondan-qonga o'tib kelyapti. Polvonlikning ko'zga ko'rinas, til bilan tushuntirib bo'lmas shunday sirlari borki, uni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi. Biz bilamiz. Bu sirlar hech bir kitobda yo'q. Mana, mening o'zim.

Surxon vohasida mendan yiqilmagan polvonning o‘zi yo‘q! O‘sha maktab ko‘rgan sport masterlariyam yag‘rinimdan oshib ketdi! Xalq nimasi bilan xalq? O‘zining urf-odatlari bilan xalq! Ko‘p urf-odatlarimizni birovlar o‘ziniki qilib oldi! Biz qo‘limizni burnimizga tiqib qoldik. Bu yog‘i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo‘q qildik. Xiyol bo‘lmasa xalqning o‘zini-da eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin dedik! Bugun buni yo‘qota bersak, ertaga uni yo‘qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi? Tag‘in nimalardir ...nimalardir yo‘qolib boryapti...» Bo‘ri polvon o‘yladi-o‘yladi...O‘ylab o‘yiga yetdi...

«Avlodlar almashgan sayin ...yo pirim-e, tuf-tuf-tuf...avlodlar almashgan sayin...yurak yo‘qolib boryapti! Jasad bor! Aql bor! Yurak yo‘q! To‘rt mucha bor! Kuch-quvvat bor! Yurak yo‘q! Ko‘krakda jon bor! Yurak yo‘q, yurak!, ...» (134 so‘z, Tog‘ay Murod).

KISHILIK OLMOShLARI

Qushlar ham «Vatan» deydi

O‘shanda bahorning go‘zal kunlaridan biri edi. Buvimlarnikiga bordim. Ayvonda uya qurgan ikki qaldirg‘ochga ko‘zim tushdi. Bolalari ham bor ekan. Ullarning harakatlarini kuzata boshladim. Buvim esa qaldirg‘ochlarga qiziqib qolganimni ko‘rib, ular haqida so‘zlay boshladı. Qaldirg‘ochlar bu yerga in qurbanlaridan so‘ng, yana ularning jajji bolachalari tug‘ilganini, ota qaldirg‘och azonlab uchib ketib, kech qaytishi, ona qaldirg‘och uyasidan uzoqqa bormay, yaqin oradan bolalariga yegulik olib kelib berishi haqida aytib berdi. Men esa o‘sha kungi kuzatishlardan so‘ng qaldirg‘ochlar xuddi bувим aytganidek, hayot kechirishiga amin bo‘ldim. Ertasiga uyimga qaytdim.

Yoz boshlandi. Bir necha kunga yana buvimlarnikiga bordim. Qiziq, qaldirg'ochlar yo'q-ku. Uyachalari esa joyida. Buvim yozda qaldirg'ochlar boshqa o'lkalarga ketishini, ammo tez-tez kelib uyalarini ko'zdan kechirib ketishini aytdilar.

Ammo uch haftadan buyon ulardan darak yo'q. Uyalariga esa musichalar kirib olishyapti ekan. Oradan ikki kun o'tgach, qiziq voqeа yuz berdi.

Ertalab, kun chiqar-chiqmas vaqtida qandaydir shovqindan uyg'onib ketdim. Qarasam, qaldirg'ochlar uyasini ko'rishga kelibdi va u yerda begona qushning kirib olganini ko'rib, hamma yoqni boshiga ko'tarib chirillar edi. Musicha esa bu vajohatdan tezroq qutilish uchun tezda uchib ketdi.

Buvim aytganidek, jonzotlarning oilasi, otasi, onasi, bolasi bo'lganidek, ularning o'z uylari bor.

O'z uyini sevish, himoya qilish, uni vatan deb bilish faqatgina odamzotga xos xususiyat emas. (Zilola Rustamova, 180 so'z)

YORDAMCHI SO'ZLAR: **KO'MAKCHI, BOG'LOVCHI**

Safardan qaytish

Safarga chiqqanimdan buyon ko'p ajoyibotlarni ko'rdim, ko'p g'aroyibotlarning guvohi bo'ldim. Xursand bo'lgan kunlarim bo'ldi, xafa bo'lgan kunlarim bo'ldi. Ammo hech qachon bugungidek ko'nglim o'ksimagan, bugungidek xo'rligim kelmagan. To'g'ri, oyijonimni sog'inganman, singillarim ko'z o'ngimdan nari ketmay qolishdi, birga o'qigan o'rtoqlarim: malla sochli Ortiqvoy, darsda uxlab o'tiradigan Shokirjon hamma-hammasini sog'indim, ko'rgim keladi. Ammo nachora. Men o'qimasdan agronom bo'lmoqchi edim, shuning uchun

ham barcha azoblarga, barcha mashaqqatlarga tishimni tishimga qo'yib chidagan edim, maqsadimga erisha olmadim, sharmanda bo'ldim!

Ammo o'zim yo'l qo'ygan xatoni bo'ynimga olgim kelmay turibdi. To'g'ri, kishi o'qimasa, yoshligida ilm o'rghanmasa agronom ham, shoir ham, muhandis ham, artist ham bo'la olmas ekan...

Sekin o'rnimdan turib, yuz-qo'limni yuvdim. To'yib ovqatlandim. Qorning to'q bo'lsa miyang yaxshi ishlaydi deganlari rost ekan. Qornim to'ygach, miyam ham yog'langan motordek ishga tushib ketdi. Darhol sovg'a-salom olish uchun do'konlarga qarab yugurdim. (130 so'z, X. To'xtaboyev)

Tilla chanoq

Sahro o'rtasida devlarning qo'rg'oni bor ekan. Bu qo'rg'onda ular bittagina tilla chanoqni qo'riqlashar ekan. Bu sehrli chanoq ekan. Kimki uni qo'liga olib, qanday yaxshi narsani niyat qilsa, albatta ijobat bo'larkan. Tilla chanoqni devlardan tortib olamiz, deb juda ko'p odamlar kelishar ekan-u, lekin devlar ularni bitta qo'ymay qirib tashlashgan ekan. Oxiri bu ishga bir botir yigit bel bog'labdi. Shamoldan ham tez uchadigan arg'umog'ini minib yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Dashtu biyobonda ketayotib, bir buloqqa duch kelibdi. Buloq yonida chalajon burgut yotgan mish. Yigit burgutni qo'liga olib, suv ichiribdi. Yaralariga malham qo'yibdi. Burgut tirilib, xuddi odamga o'xshab gapiribdi: «Rahmat senga ey odamzot. Sen meni o'limdan qutqarding, endi o'la-o'lqunimcha senga xizmat qilaman», – debdi. Keyin nima maqsadda yurganini so'rabdi. Yigit qayoqqa ketayotganini aytibdi. «Yana yetti kecha-kunduz yurganimizdan keyin bir chinorga duch kelamiz, – debdi burgut

– Oting bilan meni o’sha yerda qoldirib, kun chiqarga qarab lahm kavlaysan, men devlarni chalg’itib turaman. Otingga minasanu ayamay qamchi bosasan. To qishlog’ingga yetib borguningcha qutichani ocha ko’rma, ko’r bo’lib qolasan»

Yigit burgut aytganidek yo’l tutib, tilla chanoqni qo’lga kiritibdi. Shundan keyin bu qishloqning odamlari rohat-farog’atda yashay boshlashibdi. (130 so‘z, Emin Usmonov)

YUKLAMA

Rayhon

Shiyponning o’ng tomoni katta gulzor. Atrofiga sadarayhon, jambil, oshrayhon, hojirayhon, tog’rayhonlar, o’rtasiga anvoysi xil rangdagi atirgullar ekilgan. Choyxonaga kelgan kishi bir nafas gulzor yonida turib, rayhonlarni silkitishdan, kichik bir shoxini bo’lsa ham uzib, kaftiga urib, to’yib-to’yib hidlashdan o’zini tiyib turolmaydi. Shu zaylda rayhonlar ertayu kech tinim bilmay silkinadi, odam qo’li tegib shovillaganda ochilib-sochilib, yayrab ketadi, xushbo’y hidini butun tolzor bo’ylab taratib, dimoqlarni chog’ qiladi.

Gul shaydosi Orif otaning-ku, ertayu kech chakkasida rayhon. Tong pallasida bir dastasini do’ppi tagidan qistirib olganicha, yostiqqa bosh qo’yadi-yu, rayhonni yoniga tashlaydi. Hidi kelib turmasa ishidan yanglisharmish, uyqusi qocharmish. Hatto sayratmalar ham uning hidiga mast bo’lib avjiga chiqarmish. Bulbullar shu bo’ydan to’yib-to’yib nafas olmasa xonish qilolmasmish. Orif ota gullar ta’rifini hikoya qilguday bo’lsa, hamsuhbatining og’zini ochirib qo’yadi. Bitta rayhonning necha turini sanab, biridan – birining farqini aytib beradi. Uning nazarida, gullar ichida, nainki gullar, jamiki nabotat olamida rayhondek

xushbo‘yi yo‘qmish. Jonivor nihoyatda beor, ortiqcha zahmat chektirmaydi, betakalluf, betashvish o‘saveradi. Huda-behudaga so‘lib, qurimaydi. Dimog‘ingni chog‘ qilsa, oshingni xushta’m qiladi. (Rahmat Fayziy, 155 so‘z)

YORDAMCHI SO‘ZLAR

Mirzo Bedil

Mirzo Bedil – qomusiy bilimlar sohibi bo‘lgan ulug‘ alloma, shoir. U Hindistonda tug‘ilib, o’sha yurtda yashab ijod qilgan. Uning ota-bobolari asli Shahrisabzlik bo‘lib, taqdir zayli bilan Hindistonga borib yashab qolishgan. Bedil dunyoni bilishda fanga katta ehtirom bilan qaragan va uning inson hayoti uchun zarurligiga urg‘u bergen. Alloma insonning baxt-saodati boylik orttirish yoki amalga ega bo‘lishda emas, balki fanni o‘rganish, bilimlarga ega bo‘lish bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berdi.

Bedil o‘z she’rlarida ilm-fanni ulug‘laydi. Olimning fikricha, fan olamni tekshiradi, bilim beradi. Fanni egallash, bilimga ega bo‘lishning o‘zi yetmaydi. Olingen bilimlar amaliyot bilan, hayot bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Mirzo Bedil bilim insoniyatning rivojlanishida doimo katta ahamiyatga ega bo‘lgan degan g‘oyani o‘z asarlari mazmuniga singdirgan .

Bedil – yangilik maftuni. U Sharq adabiyoti va falsafasida yangi fikrlar bilan o‘zini tanitgan. Faylasuf olim jaholat ustidan ilm-ma’rifat tantana qilish g‘oyasini olg‘a suradi. Shoirning ilm-fan, bilim, aql to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davrda nihoyatda dolzarbdir. Insoniyat axborotlashuv jamiyatni sari bormoqda. Bu jamiyatni rivojlantirish asosini bilim va axborot tashkil etadi. (155 so‘z, «Bedil va o‘zbek adabiyoti» kitobi)

O'qituvchi go'zallik sohibi

O'qituvchi go'zallik sohibidir. U oljanob, sharaflı kasb egaları haqida ne-ne aziz odamlar qo'llariga qalam olib jo'shqin hislarini, eng yaxshi tilaklarini oq qog'ozlar betiga bitmagan deysiz. Hayot abadiy. Ammo u yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta'lim va tarbiya beradigan mehri daryo o'qituvchilari ham abadiy barhayot yashayveradi. Hayotning bu sharaflı kasb egalariga bo'lgan ehtiyoji ham abadiydir.

O'qituvchi bamisoli bog'bon. U yoshlik gulshanining bog'boni. Maktab, o'quv yurti-yoshlik gulshani, yosh avlod uning bebaho nihollari, ustoz o'qituvchilar bu bog'ning oqil, mirishkor, mehribon bog'bonlaridir. U o'z bog'idagi mevalarning rango-rang va sog'lom bo'lishini umid qiladi. Gulshanda bironta ham shumg'iya o'smasligi uchun kurashadi. Har bir shogirdini baxtiyor ko'rishni orzu qiladi. Daraxtni shirin meva, o'qituvchini esa oqil, barkamol shogird bezaydi. Biron bir soha yo'qliki, unga o'qituvchining bevosita yoki bilvosita qo'shgan hissasi bo'lmasin.

Zamonamizning zabardast olim va shogirdlari, shoir va san'atkorlari, fazogirlari, ishchisi, o'rmonchisi, shifokori, quruvchi-injeneri hammasi o'qituvchidan ta'lim olgan. Shuning uchun ham xalqimiz tog' cho'qqilaridan yuksak mehr-muhabbatini, quyosh nuridek jo'shqin qalb haroratini «o'qituvchi» degan so'zga sig'dirgan va bu nomni katta e'zoz bilan tilga oladi (130 so'z, R. Usmonov)

Laylatul qadr

«Ulug'larning ulug'i! Saxovatlilarning saxovatlisi! Odamlarning og'irini yengillashtirgan nurqush – Laylatulqadr! Faqat odamlarni suygan, ardoqlagan, ularni quvontiradigan Xastixiz! Tezroq menga ko'rininglar!»

Anor ismli qizcha doim buvisidan eshitadigan gaplarini ko'nglida takrorlay boshladi.

U Laylatulqadr, Xastixizrn ko'rish, ular bilan uchrashish, ko'nglini yorish, shu bilan buvisining dardiga malham topish umidida edi.

Kech kirdi. Palov damlandi. Azaliy udumga ko'ra, bolalar hademay palov, non, bo'g'irsoq to'ldirilgan kosalarni ko'tarishib qo'ni-qo'shnilariga olib chiqishadi, tarqatishadi. Qiz-juvonlar, kelinlar o'sma siqishadi, xina yanchishadi. Qosh-ko'zlar, qo'l-oyoqlariga qo'yishadi, yuvinib-taranishadi. Shu tariqa tong otishi, Laylatulqadr ko'rinishi, Xastinazar kelishini kutishadi. Ularni ko'rish, saxovatidan bahramand bo'lish kimga nasib etarkin? Buvisining aytishicha, pokiza, gunohsiz odamga ko'rinar mish. Baribir hamma orzu-umid bilan ko'chalarga chiqaveradi. Axir odam orzu-umid bilan yashaydi-da. Bu gal betob kampirning chevarasi Anorga ko'rinishi shart. Chunki u o'z baxti uchun emas, buvisining sog'ayishi, amakilarinig harbiydan qaytishini so'raydi... (130 so'z, O'. Hakimali)

Samarqand

Samarqand bozori. Bir tomonda pista, bodom, sho'rdanak... Bir tomonda quruq meva, bir tomonda ho'l meva... Ko'zlar ingiz qamashib ketadi.

Men Samarqand nonlariga ishqivozman. Tavba, qanday qo'li gul odamlar yopar ekan-a bunday nonlarni? Hozir yesangiz ham maza qilasiz. Bir oydan keyin ham uning kasir-kusuri ruhingizni ko'taradi. Bitta yangi uzilgan bo'rsildoq non olib, qaymoq bozoriga o'tdim. Qaymoqchilar ning panasida bir sopol tovoq qaymoqqa uni botirib yedim. Bilasizmi, ancha o'zimga keldim. Ayollardan biri achchiq ko'k choy uzatdi. Registonga o'tib oftob yaltiratib turgan

madrasalarning hammasini shoshmasdan tomosha qildim. Keyin Afrosiyob muzeyiga bordim. Kun yarim bo'ldi. Zarafshonga kelib ovqatlangan bo'ldim. Keyin yana ko'chaga chiqdim. (130 so'z, O'. Umarbekov)

Dangasalarga chora

Ravshan bilan Munira ikki oshnani otaliqqa olib toza pushaymon bo'lishdi. Nega desangiz, ular muloyim, mo'minqobil ko'ringani bilan, eh-ha, o'taketgan dangasa-yu, g'irt yolg'onchi ekan, Ravshan ikkovining ham uyiga bordi. Vaqtlarining bekor o'tmasin deb rosa gapirdi. Na unisi qulqoq soldi, na bunisi. Munira ikki oshnani yo'lga solaman deb, holdan toydi, baribir hech natija chiqara olmadi. Bu ham mayli-ya, ikki oshna biror bolaning dilini og'ritishsa yo bitta-yarimtaning ko'ngliga ozor berishsa, o'sha jabrlangan odam darrov: «Anovi ikki dangasaga aytib qo'ylaring, bu nima qilgani», deb Ravshan bilan Muniraga dakki beradigan bo'ldi. Bir kuni o'qituvchi ham: «Barakalla, ikki kishi bo'laturib, shularni yo'lga solo madilaring-mi?» deb ta'na qildi. Xullas, Ravshan bilan Munira bir kuni nima qilishlarini bilmay boshlari qotib, dangasalarni otaliqqa olganliklaridan ming-ming pushaymon yeb darsdan keyin maktabdan ketishayotgan edi. Malika xolaga duch kelishdi. Malika xolaning gapidan, ular yalqov deb yurgan ikki oshna ko'chada ham tinch yurishmas ekan. Ikki oshna hovlida hech kim yo'qligidan foydalanib, shox-shabbalarni yoqib yuborishibdi.

Shu kuni Ravshan bilan Munira qat'iy bir qarorga kelishdi. Bolalarni bir boplab ta'zirlarini berish kerak! Ularni mehnatni qadrlashga o'rgatish kerak. (Latif Mahmudov, 150 so'z)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Mirzayev A.* Diktant metodikasi. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» 1979.
2. *O'l. Umarbekov.* Saylanma, – T.: «Adabiyot va san'at» nashriyoti 1984.
3. *Mirkarim Osim.* Zulmat ichra nur. – T., 1963.
4. *Rahmatullayev Sh.* O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – T. O'qituvchi. 1984.
5. *X. To'xtaboyev.* Saylanma. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti 1987.
6. *Hakimali O'ktam.* Non ta'mi. – T.: «Yulduzcha» 1990.
7. *Rahmatullayev Sh.* O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi 1984 yil.
8. *Mahmudov Latif.* Burgut olib qochgan bola. – T., 1983.
9. *Sh. Xolmirzayev.* Saylanma. – T.: «Sharq» 2003.
10. *E. Usmonov.* Tilla chanoq. – T., 1973.
11. *Nazir Hakim.* Tanlangan asarlar. – T., 1970.
12. *A. Hojiyev.* O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1974.

Mundarija

So‘z boshi	3
V-sinf	
Ta’kidiy diktant matnlari	5
Ijodiy diktant matnlari	6
<i>Nazorat diktanti</i>	11
VI-sinf	
Ijodiy diktant matnlari	17
<i>Nazorat diktanti</i>	20
VII-sinf	
Ijodiy diktant matnlari	32
<i>Nazorat diktanti</i>	34
Foydalanilgan adabiyotlar.....	46

DIKTANTLAR TO'PLAMI

(V – VII sinflar uchun)

Muharrir *V. Umirov*
Texnik muharrir *N. Alimov*
Badiiy muharrir *Z. Fayzullayeva*
Kompyuterda sahifalovchi *S. Djurayev*

Bosishga 25.06.2008-y. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b.t. 2,79. Nashr t. 3,0. Jami 1000 nusxa.
201-raqamli buyurtma.

**«ABU MATBUOT-KONSALT» nashriyoti,
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 16-A**

«ARNAPRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent shahar, H. Boyqaro-41.